

Aziza QODIROVA,

TerDU Psixologiya kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari falsafa doktori (PhD)

E-mail: azizaqodirova808@gmail.com

Tel: 91-902-54-82

TerDu v/b dotsenti Yu.Karaeva taqrizi asosida

SAYYID BURHONIDDIN MUHAQQIQ TERMIZIY'S WORK AND ACTIVITY

Annotation

Scholar Termizi is known among the figures of Sufism for his unique scientific and mystical views. Before his teacher's death, he entrusted his son Jalaluddin Rumi to Muhaqqiq Termizi and bequeathed him to be his mentor. He received his early education from his father. Due to his strong love for science, he has a deep understanding of many sciences of his time, especially Sufism.

Key words: Sufism, teacher, knowledge, truth, love, Sharia, sect, enlightenment

ТВОРЧЕСТВО И ТВОРЧЕСТВО САЙИДА БУРХОНИДИНА МУХАККИКА ТЕРМИЗИ

Аннотация

Ученый Термизи известен среди деятелей суфизма своими уникальными научными и мистическими взглядами. Перед смертью своего учителя он доверил своего сына Джалалуддина Руми Мухаккику Термизи и завещал ему быть своим наставником. Первоначальное образование он получил от своего отца. Благодаря сильной любви к науке он обладает глубокими познаниями во многих науках своего времени, особенно в суфизме.

Ключевые слова: Суфизм, учитель, знание, истина, любовь, шариат, секта, просвещение.

SAYYID BURHONIDDIN MUHAQQIQ TERMIZIY IJODI VA FAOLIYATI

Annotatsiya

Muhaqqiq Termiziyi betakror ilmiy- irfoniy qarashlari bilan tasavvuf namoyandalari ichida tanilgan. Ustozi vafotidan oldin o'z o'g'li – Jaloliddin Rumiyni Muhaqqiq Termiziyga topshirib, unga ustozlik qilishini vasiyat etadi. U dastlabki ta'limni otasidan oladi. Ilmga kuchli muhabbati tufayli o'z davrning ko'plab ilmlari, ayniqsa, tasavvuf ilmini chuqur egallaydi.

Kalit so'zlar: tasavvuf, ustoz, ilm, haqiqat, muhabbat, shariat, tariqat, ma'rifat

Kirish. Muhaqqiq Termiziy (1165-1241) betakror ilmiy- irfoniy qarashlari bilan tasavvuf namoyandalari ichida “Muhaqqiq” (“haqiqatni so'zlovchi”), “Orif” (“ma'rifat maqomiga yetgan zot”), “Sayyidi sirdon” (“valiyarga xos sirlarni biluvchi”) nomlari bilan tilga olinadi. Bu zot Sultonul ulamo Bahouddin Valadning (1149-1232) ko'zga ko'ringan mashhur muridlaridan biri sanaladi. Shuning uchun ustozi vafotidan oldin o'z o'g'li – Jaloliddin Rumiyni Muhaqqiq Termiziyga topshirib, unga ustozlik qilishini vasiyat etadi. Jaloliddin Rumi (1207-1273)ning mutasavvif va orif shoir sifatida tanilishiga Sayyid Burhoniddin Termiziyning alohida xizmatlari bor.

U tasavvufning to'rt arkonini bo'lgan shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat maqomlarida umri davomida sabotli turib, doimo xalq xizmatida qoim, odamlarni to'g'ri yo'lga boshlash yo'lida da'vatchi bo'ldi.

Ustozining ruhiy tarbiyasi orqali butun umrini Haq yo'lga baxshida etib, “Maorif” nomli so'fiyona va tasavvufiy ruhga xos ilmiy-irfoniy asar yozgan. Asar mavzu-mundariyasi ruhiy poklanishga qaratilgan bo'lib, Qur'on oyatlari, hadis sharif namunalari, hikmatli so'zlar va she'rlar bilan boyitilgan. Muallif o'z irfoniy qarashlarida komil inson tarbiyasiga ko'proq urg'u beradi. Zero, ruhiy tarbiya bilan bog'liq ijtimoiy odoblar asarining asosiy g'oyasi hisoblanadi.

Inson kamoloti uchun muhim sanalgan ilm o'rganish odobi, ustoz-shogird munosabatlari, komil aql egasi, qalb va jismi poklash, sir, muomala, buzuq nafsni mag'lub etish, namoz, ro'za, imon, Allohning vahdaniyati, qalb mushohadasi kabi aqida, tasavvuf, mantiq, siyrat va axloq ilmiga oid mavzular asar mazmunini tashkil qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sayyid Burhoniddin Termiziyning hayoti va faoliyati aks etgan davr tarixi va ilk islom davriga oid manbalar, islom dini rivojiga o'z faoliyatlarini, yozgan asarlari bilan xizmat qilgan shaxslarning ijtimoiy, pedagogik va psixologik qarashlari, islom dinida nomlari bilan tanilgan insonlar faoliyatini o'rganishga qaratilgan manbalar mahalliy olimlardan tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda Sayyid Burhoniddin Termiziyning asarlaridagi psixologik qarashlarni o'rganish maqsadida kontent-tahlil metodi, arxiv hujjatlari, yozma, foto va elektron manbalar bilan ishlash, chet tillaridagi adabiyotlarni o'rganish, nazariy, qiyosiy, analitik, psixologik tashxis va tahlil, matematik hisoblash usullaridan foydalanildi. Shu bilan bir qatorda, tadqiqot muammosining nazariy jihatlarini maxsus tayyorlangan ijtimoiy-psixologik savolnoma, tarixiy manbalarni psixologik nuqtai nazardan qiyoslash va solishtirish Sayyid Burhoniddin Termiziyning yashash davri bilan bog'liq sana va muddatlari ilmiy izchillik asosida baholandi. Tajriba-sinov natijalarining statistik ishonchlilik darajasi Styudent-Fisher mezonini bilan tasdiqlandi va tegishli formulasi orqali korrelyatsiya qilindi.

Tahlil va natijalar. Sayyid Burhoniddin Termiziyning faoliyatini tadqiq etish birinchidan, talaba yoshlarda diniy qadriyatlarimizga bo'lgan qiziqishni orttirib, ikkinchidan, ularda allomaning psixologik fikrlari va g'oyalarini tushunish jarayonlariga mazmunan yondashishni to'g'ri tashkil etish masalasini yuzaga chiqaradi.

Ushbu masalani hisobga olgan holda, oliy ta'lim muassasalarida ochiq ma'ruza, dars va mashg'ulot o'tkazishda Sayyid Burhoniddin Termiziyning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan mavzu taklif etildi.

Ismi – Burhoniddin, otasining ismi – Hasan, bobosining ismi – Qosim. To'liq ismi – Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy. Nasl-nasabi Muhammad alayhissalomning nevarasi Husayn ibn Abi Tolibga borib tutashgani uchun “Sayyid” va “Husayniy” nisbasi bilan nomlangan.

Ilmu ma'rifat va haqiqat yo'lida doimo haq tomonida bo'lganidan “Muhaqqiq” deb atalgan.

Bundan tashqari, ilohiy fayz kushufoti orqali, yuksak iste'dod sohibi ekanidan “Sayyidi sirdon” (“Sirlarning sayyidi”) nomi bilan zikr qilingan. Termizda tug'ilib, u yerda ta'lim olgani uchun xalq orasida “Termiziy” nisbasi bilan mashhur bo'lgan.

Taxminan 1165 yili Termiz zaminida tavallud topgan. Otasining ismi Hasan Husayniy, bobosining ismi – Qosim Husayniy bo'lgan.

U dastlabki ta'limni otasidan oladi. Ilmga kuchli muhabbati tufayli o'z davrning ko'plab ilmlari, ayniqsa, tasavvuf ilmini chuqur egallaydi.

Ilm yo'lida ko'plab zahmat chekib, ustozlik darajasiga yetgan. Ustozi Sul-tonul ulamo Bahouddin Valadga sodiq murid sifatida yillar davomida xizmat qiladi. "Maorif" asarini uning ruhiy ta'siri ostida yozgan. Qur'on, hadis, fiqh, kalom, mantiq ilmlarida zamonasining peshqadami bo'lgan. Jaloliddin Rumiya bir qancha muddat ruhiy tarbiya bergan. Umri davomida Haq yo'lida sabotli bo'lib, o'z pand- nasihat-lari bilan xalq orasida shuhrat qozongan. Usto-z shogirdlik muhabbati o'laroq Termiz zaminidan umrining oxirida Turkiyaga safar qiladi.

Burhoniddin Termiziy tasavvuf, hadis va kalom ilmini ham mukammal o'rgangan. "Maorif" asarida "Fath" va "Muhammad" surasining ba'zi oyat-lari tafsirini keltirgani uning tafsir ilmidan ham boxabar ekanini isbotlaydi.

Sayyid Burhoniddin hayoti davomida nafs tarbiyasiga ahamiyat bergan. Uning ta'kidlashicha, komil inson bo'lishning yagona sharti nafsning xohish-istaklariga qarshi turishdir. Oz yeyish, oz uxlash, oz gapirish, ba'zan, arpa nonini tanovul qilish ilmini amali bilan mustahkamlagan olimning doimiy odati edi.

Valiy-larga xos bo'lgan yana bir fazilati – kechayu kunduz Qur'on tilovati va ibodatni kanda qilmas edi.

U qirq yoshigacha Termizda zarur bilimlarni chuqur o'rgandi.

1208 yil otasining ijozati bilan Balxga – Bahouddin Valad huzuriga boradi. Bahouddin Valadning nasl-nasabi amirul mo'minin Abu Bakrga borib taqaladi. Bahouddin Valad Balxda "Sul-tonul ulamo", ya'ni "Ulamolar sul-toni" degan nom bilan tanilgan. U 40 kun davomida bu zotdan dars olib, Termizga qaytadi.

Bir yildan so'ng o'rgangan ilmlarini yanada mustahkamlash maqsadida yana Balxga, ustoz-i Bahouddin Valadning huzuriga boradi. Bu safar uch yilga cho'ziladi. Burhoniddin Termiziy ushbu vaqt davomida zohiriy va botiniy ilmlarni o'rganib, ma'naviy yetuklik darajasiga erishadi. Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy 12 yil davomida ustoz-i Bahouddin Valadning xizmatida bo'lib, undan ruhiy tarbiya oladi [3-5] [1].

Ustozi Bahouddin Valad 1219 yili ba'zi siyosiy voqealar va mo'g'ul istilosi sababli Balxdan oilasi bilan ko'chib ketishga majbur bo'ladi. Bu voqeadan keyin Burhoniddin Termiziy Balxdan o'zining ona shahri bo'lgan Termizga qaytib keladi. Termizda ustoz-i Bahouddin Valadning ra'yi va irshodi orqali 8 yil tolibi ilmlarga va muxlislariga ruhiy tarbiya beradi.

1232 yil Saljuqiylar poytaxti Kunyaga yo'l oladi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, avval Qaysariyaga borib, shahar hokimi Sohib Isfahoniy tomonidan mehmon qilinadi va bir yildan keyin Kunyaga boradi. O'sha paytda Termiz bilan Kunya o'rtasidagi safar bir-ikki yil davom etardi. Burhoniddin Termiziy Kunyaga kelgach, bir necha oy Sinjariy masjidida qoladi. Mavlono Jaloliddin Rumi bu vaqtda Loranda (Karaman) shahrida edi. Sayyid Burhoniddin Mavlono Jaloliddin Rumiya bir maktub yuborib, mo'g'ullar bosqini tufayli Lorandada qolish xavfli ekanligini va uni Kunyaga kelishini aytadi. Mavlono Jaloliddin maktubni olgach ustozining bu taklifidan xursand bo'ladi va Sayyid Burhoniddin yoniga, Kunyaga darhol yetib keladi. Mavlono Jaloliddin 9 yil davomida ustoz-i Burhoniddin Termiziydan tasavvuf ta'limotidan dars oladi. Burhoniddin Termiziy Qaysariya shahriga ko'p safar qilib turar edi. Undan, "Nima uchun Qaysariyaga borishni xohlaysiz?" - deb so'ralganda: "Qaysariyaning tuprog'i va tog'lari Termiz tuprog'i va tog'lariga juda o'xshaydi. Xalqi ham u zerning xalqiga o'xshash, sevuvchi va ilmni yaxshi ko'radigan xalq bildim. Shuning uchun men Qaysariyaga boraman", - degan.

Mutafakkir Qaysariyada o'z faoliyati va ma'naviy fayzi tufayli tez orada xalq orasida mashhur bo'ladi. Shu sababli ham manbalarda Onado'li Saljuqiy davlati vaziri Shamsuddin Isfahoniy u zotning shogirdlari orasidan joy olgani keltiriladi.

Burhoniddin Termiziy 1241 yil Turkiyaning Qaysariya shahrida vafot etgan va o'sha joyda dafn etilgan.

Bahouddin Valadning (1149-1232) asl ismi Muhammad ibn Husayn Xatibiydir. "Manoqibu-l-orifin" asarining muallifi Aflokiyning aytishicha, u zot o'z zamonasining buyuk mutasavvif va allomalaridan edi. Uning hayot va faoliyatini e'tiborga olgan holda, aytish mumkinki u nafaqat tasavvuf ilmlari bilan shug'ullangan, balki, fiqh, kalom, tafsir va she'riyat ilmidan ham voqif bo'lgan. «Manoqibu-l-orifin» asarida uning tariqatdagi ustoz-i Najmiddin Kubro bo'lganligi tilga olinadi.

Burhoniddin Termiziy ustoz-i Bahouddin Valad izidan borib, Kubraviya tariqati murshidi sifatida ko'plab ilm ahliga ta'lim bergan. Jumladan, Jaloliddin Rumiyni ham bu yo'lda tarbiyalaydi. Bu zot barakali umri davomida haq yo'lini mustahkam tutib ko'plab shogirdlar chiqargan. Kunya shahrini umrining oxirigacha maskan tutadi. 1232 yili shu shahrdan vafot etadi.

Sayyid Burhoniddin Termiziyning vafoti xabari Mavlono Jaloliddin Rumiya yetgach, u kishi darhol shogirdlari bilan birga yo'lga chiqib, Qaysariya shahriga yetib keladi. Ustozining qabri boshida Qur'oni karimni xatm qilib, muborak ruhiga bag'ishlaydi. "Masnaviy ma'naviy" nomli shoh asarida ustozining ilmiy salohiyati va muroqabasiga ko'p ishora qilgan. Ulug' zotlarni har zamonda xalqning turli vakillari e'zozlashgan. Shuning natijasi sifatida, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Saljuqiylar davlatining vaziri Sohib Shamsuddin Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning qabri ustida Qaysariya shahrida bir maqbara qurdirgan. Lekin bir necha kundan keyin maqbara qulab tushadi. Qayta qurilsa, yana qulaydi. Sohib Shamsiddin tushida Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyini ko'radi. U zot: "Mening qabrim ustiga maqbara qurmanglar!" – deydi. Shu sabab bu ish to'xtatiladi.

Mutasavvif Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy ijtimoiy odoblarga oid tarixiy, ijtimoiy, irfoniy- falsafiy qarashlarni ilgari surgan. U hazrati inson g'oyasiga alohida e'tibor qaratgan.

Inson hayotini xavf-xatarga soladigan, gunohga boshlaydigan illatlardan biri hasaddir. Hasad qalbni shiladi, kemiradi. Aslida, hasad – birovga yetgan ne'matga rashk bilan qarash va uning sohibidan ketib, hasadchiga yetishini qattiq xohlashdir.

Sayyid Burhoniddin: "Hatto Payg'ambarlik, ilm va sarvat ne'matlari jam holda in'om etilgan insonga ham hasad qilmaslik lozim", – deydi. Hasad – illat. U qalbg'a o'rnashsa, ezgulik o'rmini qabohat, savob o'rmini gunoh egallaydi.

Ma'lumki, eng katta ma'naviy jinoyatlardan hisoblangan hasad siyosiy, iqtisodiy hamda boshqa sohalarida ko'plab zarar keltiruvchi ijtimoiy darddir. Ha, hasad aynan yomon darddir. Bu dard ham hasadchining o'zinini, ham boshqalarni kuydirib, kul qiladi.

Keling, suhbatimiz avvalida, "Hasad nima?" degan savolga javob beraylik. Ulamolar, hasad-birovga yetgan ne'matga rashk bilan qarash va o'sha ne'matning o'z sohibidan ketib, hasadchiga yetib kelishini qattiq xohlashdir, dey-dilar. Hayotning eng mayda ikir-chikirlaridan tortib eng baland cho'qqilarigacha har narsada hasad bordir.

Agar inson boshqa bir kishiga yetgan ne'matdan sevinib, o'sha ne'matni o'z egasida barqaror bo'lishini xohlagani holda, o'ziga ham berilishini tilasa, havas qilgan bo'ladi.

Hasad katta gunohdir. Havas esa, gunoh sanalmaydi. Chunki, hasadchi birovga yomonlikni ravo ko'radi, havaschi esa, birovga yetgan yaxshilikdan xursand bo'ladi va o'ziga shu kabi ne'matning berilishini orzu qiladi.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda yurtimizda eng ko'p tarqalgan va eng sezilmas, ayni choqda, o'ta yuqumli va xatarli ma'naviy xastaliklardan biri, aynan hasaddir. Yurt ichida, xalq orasida tarqalgan boshqa ma'naviy jinoyatlar qatori hasadning bu

darajada keng tarqalishiga ham o'ziga yarasha sabab va omillar bor. Eng bosh sababni jamiyat tuzumidan izlash kerak. Agar xalq o'zligini yo'qotmasa, ichki nuqsoni avj olmasa bu kabi dardlar tarqay olmaydi. Har bir inson o'z jismida dardga qarshilik ko'rsatish xususiyati zaiflashganda kasalga chalinganidek, xalqlar ham o'zlaridagi nuqsonlar-ma'naviy qashshoqlik, ruhiy zaiflik tufayli ijtimoiy dardlarga chalinadilar [1].

Jaloliddin Rumiy "Masnaviy ma'naviy" asarida shunday keltiradi: Abu Jahl Muhammad alayhissalomdan or qilar, chunki u hasad va kibr bilan o'zini yuqori martabaga ko'rar edi. Uning asl ismi Abulhakam bo'lib, jaholat va hasad sababli Abu Jahlg'a aylandi. Ular qarindosh edi, lekin afsuski, hasadi sababli begonalashdi. Yaxshi xulqdan bo'lak doimo ortidan yuradigan bu dunyoda boshqa ahillikni ko'rmadim.

Abu Homid G'azzoliyning shunday fikrlarini aytib o'tishni joiz deb bildik, odamlar go'zal xulqning mohiyati, uning nima ekanligi haqida ko'p gapirdilar, lekin aslni ochib berolmadilar. Go'zal xulq mevalarini sanadilar, ammo bunida to'la qamrab ololmadilar. Balki, xotiriga nima kelsa, o'sha payt zehnda nima bo'lsa gapirdilar, go'zal xulq chegaralariga e'tibor qaratmadilar. Go'zal xulqning barcha samalarini o'z ichiga olgan mohiyatni mufassal bayon qilolmadilar.

ADABIYOTLAR

1. Жамаҳматов К. Бурҳониддин Термизийнинг "Маориф" асарига бир назар - Термиз: "... " нашриёти, 2022. – 24 бет
2. Ислом/уз. Мақола. 2017
3. Куръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима (таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). - Тошкент: Чўлпон, 1992. - 542 б.
4. "Буюк алломалар, адиб ва мутафаккирларимиз ижодий меросини кенг ўрганиш ва тарғиб қилиш мақсадида ёшлар ўртасида китобхонлик танловларини ташкил этиш тўғрисида"ги Президент қарори / «Халқ сўзи» газетаси. 2018 йил, 15-май.
5. Абу Ҳомид Ғаззолий. Ихёул улумид дин. 4 -жилд. - Т: Мовароуннахр, 2014. - 512 б.
6. Жалолиддин Румий. Маснавий маънавий (иккинчи дафтар). - Техрон: 1333 х. - 1145 б..
7. Имом Термизий. Ал-Жоме ус саҳих. -Байрут: Дор ихёит туросил арабия, 1411 х.
8. Мухаммад Нуруллох Сайдо Жазарий. Тасаввуф сирлари. -Тошкент: Мовароуннахр, 2000. - 118 б.
9. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири Хилол. 3 жилд. -Т.: Hilol-nashr, 2016. - 656 б.